IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON , VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI KAPITAL BOZORIDAGI ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH

Muallif	**Mo'minov Shohjahon Suyun o'g'li**
O'qish yoki ish joyi	**Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Korporativ boshqaruv Kafedrasi assistenti**
Qabul qilindi	**29.09.2023**
Nashr qilindi	**29.09.2023**

Annotatsiya

Maqolada korporatsiyalar faoliyatini rivojlantirish, ularning fond bozoridagi faoliyatini oshirish va yangi zamonaviy loyihalarni investitsion jihatdan moliyalashtirish hamda kapital bozori orqali iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun takliflar berilgan.

Abstract

The article gives proposals for the development of the activities of corporations, increasing their activity in the capital market, investment financing of new modern projects, and further development of the economy through the capital market.

Аннотация

В статье даны предложения по развитию деятельности корпораций, повышению их активности на рынке капитала, инвестиционному финансированию новых современных проектов, дальнейшему развитию экономики через рынок капитала.

Kalit so'zlar

Aksiyadorlik jamiyatlari, kapital bozori, investitsiya, startaplar, heyj fondlar, kompaniyalarni investitsion banklar orqali rivojlantirish, texnologik yangiliklar, iqtisodiy rivojlanish.

KIRISH

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari shuningdek korporatsiyalar, fond bozorlari va banklar iqtisodiyotning qon tomirlari desak bo'ladi. Korporatsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo'shishda asosiy rol o'ynaydi. Bular asosan aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi va bu yuridik shaxslar kompaniya yoki tijorat banklari ham bo'lishi mumkin. Globallashuv sharoitida mamlakatlar o'rtasidagi integratsiya ham rivojlantirib bormoqda. Bugungi bozor iqtisodiyotida korporatsiyalarning ahamiyati juda muhim. Korporatsiyalarning va investitsion banklarning ahamiyati ortib bormoqda. Respublikamiz banklari moliyalashtirishda faqat kredit tizimiga tayanadi. Investitsion xizmatlar mavjud emas ya'ni davlatimizda banklarning investitsion xizmatlari kreditga asoslangan. Kapital bozorini rivojlantirish orqali bu muammoni hal qilsa bo'ladi. Misol uchun biror bir yangi loyiha va startapga moliyalashtirish kerak bo'lsa u bankdan investitsiya olmaydi balki kredit olishga majbur bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda yangi loyiharni moliyalashtirishda kreditning

foizi juda past miqdorda bo'ladi. Ular dastlabki moliyani kapital bozorlari yoki fondlar orqali investitsiya sifatida oladi. Investitsiya kompaniyalarni rivojlantirishdagi asosiy vosita hisoblanadi. Loyihalarni moliyalashtirishda rivojlangan davlatlar asosan kredit tizimidan emas balki investitsiya instrumentidan keng foydalanishadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda investitsion banklar faoliyati keng rivojlangan. Yaponiya, Aqsh, Isroil kabi davlatlar kompaniyalarni ayniqsa startaplarni moliyalashtirish va rivojlantirish uchun investitsiyaga tayanishadi. Kredit tizimi bu davlatlarda allaqachon eskirib ketgan tizim hisoblanadi. Rivojlangan va bir necha yillardan beri stabel faoliyat yuritib kelayotgan kompaniyalar keyingi bosqichga o'tish uchun yoki aylanma mablag'ini oshirish uchun past foizlarda kredit olishi mumkin. Yangi loyihalar, yangi xizmatlar, startaplar yoki IT kompaniyalarning asosiy moliyaviy ta'minoti investitsiya hisoblanadi. Ushbu maqolada investitsion faoliyat orqali iqtisodiyotni rivojlantirish uchun bir qancha takliflar berilgan.

Tadqiqot metadologiyasi

Bugungi kunda qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritayotgan bo'lsa iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishayotgan hisoblanadi. Bunda fond bozorining o'rni juda muhim. Respublikamizda juda ko'p loyihar moliyalashtirilyapti lekin faqat kredit evaziga. Tasavvur qiling bior yangi loyiha yoki startap tashkil qilindi. Endi uni ishga tushirish uchun mablag' zarur. Bu mablag'ni tadbirkor qayerdan oladi, albatta bankdan oladi. Bank tizimimiz esa kreditga qurilgan. Ya'ni bu moliyalashtirish usuli tadbirkor uchun unchalik maqul emas. Yangi loyiha ishga tushgandan keyin birdan foydaga kirishi qiyin chunki har bir yangi startap bu tavakkal degani. U rivojlanib ketishi uchun yillar kerak bo'lishi mumkin. Ba'zi loyihalarning 5-10 yillik strategik rejalari bo'ladi, ularga yilma yil rivojlanishi uchun faqat pul kiritib borishga tog'ri keladi. Bu degani kiritilgan pul birdan birdan qaytmaydi va loyiha bir necha yildan keyin o'zini oqlashi mumkin. Lekin bunday loyihalar kelajakda juda katta o'sish beradi faqat ularning rivojlanishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Bunday loyihalarga kredit kerak emas balki investitsiya kerak. Rivojlangan mamlakatlarda bu tizim qanday ishlaydi, ularda yangi loyihalarni moliyalashtirishning ko'p usullari mavjud. Bular fond bozorlari, heyj fondlar va investitsion banklar hisoblanadi.

Respublikamizda ham investitsion banklarni tashkil qilish kerak. Investitsiya asosida turli soha va tarmoqlarga yangi texnologiyalar, tajribalar va malakali kadrlar kirib keladi. Isroil davlatini misol tariqasida olsak, bu davlat startaplar davlati deyiladi chunki bugungi kunda Isroil davlatining iqtisodiy o'sishi yangi texnologiyalarga asoslangan. Bunda investitsion banklarning, heyj fondlarning va xususiy investorlarning o'rni katta. Isroil muntazam yangi startaplarni, ayniqsa raqamli IT loyihalarni moliyalashtirib keladi va bu davlatda juda ham jozibali investitsion muhit mavjud. Bu moliyalashtirishlar investitsion banklar, fondlar yoki xususiy investorlarning hisobiga bo'ladi bank kreditlari hisobiga emas. Bank kreditlari ham kerak lekin u moliyalashtirishda juda kam foizga ega bo'lishi kerak.

Rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning rivojlanishini taminlagan tizim kapital bozori hisoblanadi. Kapital bozori va uning ishtirokchilarisiz iqtisodiyot rivojlanmaydi. O'zbekiston Respublikasida ham kapital bozorini rivojlantirish uchun rejalar mavjud va qonunlar qabul qilinmoqda. Biroq buning o'zi yetarli emas. Buning uchun rivojlangan davlatlar kapital bozori tajribasiga asoslangan haqiqiy amaliy harakatlar kerak. Kapital bozorida moliyaviy aktivlar ishlab chiqarishning moddiy boyliklarga aylantirilishi, o'z navbatida, savdo va sanoat tarmoqlarining

rivojlanishiga olib keladi va bu bilan iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi. Zero, kapital bozori rivojlanmagan mamlakatdagi aholi jamg‘arma mablag‘larini nisbatan yaroqsiz va samarasiz kanallarga, faqatgina ko‘zga ko‘ringan iste'mol mahsulotlariga va boshqalarga sarflaydi, yoki umuman sarflamaydi, natijada bu iqtisodiy o‘sishga katta to‘siq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiya loyihasida ko‘rsatilganidek, milliy IPO/SPO fond bozorining shakllantirilishi mamlakatda xususiylashtirishni va moliya bozorini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Jumladan, xususiylashtirish shaffof va ochiq tarzda amalga oshirilishiga, barcha zaruriy ma'lumotlarning oshkora bo‘lishiga va shu orqali mahalliy hamda xorijiy investorlarning qiziqishari ortishiga xizmat qiladi. Davlat dasturlarida faol investitsiyalarni jalb qilish, xususan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shulardan kelib chiqib, mazkur sohani rivojlantirish — mamlakat iqtisodiyoti o‘sishini ta'minlashda muhim rol o‘ynashini inobatga olgan holda, ishlab chiqilgan strategiya loyihasini tezkorlik bilan hayotga tadbiq etish va shu orqali mamlakatimiz moliya bozorini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

O’zbekistonda iqtisodiyot rivojlanishi uchun kapital bozori rivojlanishi kerak. Buning uchun biz rivojlangan mamlakatlar kapital bozori tajribasini o’rganishimiz kerak. Bugungi kunda respublikada fond bozorining ulushi iqtisodiyotda juda kam. Ko’p kompaniyalar moliyalashtirishda bank kreditidan foydalanadi. Bu juda foydali usul emas. Buning o’rniga heyj fondlar, investorlar yoki investitsion banklarning mablag’laridan foydalansak kompaniyalar iqtisodiy tez o’sadi. Buning uchun bir nechta yechimlar bor:

1. Kapital bozori investorlar uchun qulay bo’lishi kerak;

2. Startaplar uchun soliq chegirmalari bo’lishi kerak;

3. Mahalliy fuqarolar pullarini fond bozoriga jalb qilish kerak;

4.Masuliyati cheklangan jamiyatlariga obligatsiya chiqarish huquqini berish kerak;

Kapital bozorida talab va taklif qanchalik ko’p bo’lsa investorlar ham ko’p bo’ladi. Bugungi kunda O’zbekiston fuqarolarining ko’p qismi chet davlatlarda ishlaydi. Rossiyada 3 million, Turkiyada 3 million, Yevropada 1 million va Amerikada 300 ming aholi ishlaydi. Ular O’zbekistonga jo’natadigan pul jami 10 milliard dollardan oshadi. Agar bu pullarni Respublika fond bozoriga yo’naltirsak qo’shimcha 10 milliard dollar mablag’ paydo bo’ladi va bu fond bozorining rivojlanishiga sabab bo’ladi. Bu odamlar fond bozorida aksiyalar sotib olishi uchun iqtisodiyotda davlatning ishtiroki kamayishi kerak. Yangi startap loyihalar rivojlanishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlari erkin va shaffof faoliyat yuritishi kerak. Shunda respublikamiz aholisi o’zining pullariga fond bozorida aksiya sotib oladi. Bundan tashqari biz xorijiy fond bozorlar tajribasini o’rganishimiz kerak.

Masalan: Nyu York fond bozori, London fond bozori, Hong Kong fond bozori.

Bular rivojlangan fond bozorlari hisoblanadi. Bundan tashqari biz Rossiya va Qozog'iston fond bozorlari tajribalarini ham o'rganishimiz kerak. Bu davlatlar fond bozorlari ancha rivojlangan. Bu davlatlarda yirik investitsion banklar, texnologik kompaniyalar va brokerlar bor.

1. Yandex- Russia

2. Tinkoffbank- Russia

3. Kaspi- Kazakhstan

4. Freedom Finance- Kazakhstan

Bu kompaniyalar iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan. Bizning davlatimizda ham shunday loyihalar bo'lishi kerak. Shunda xorijiy investorlar ko'payadi.

Rivojlanayotgan kompaniyalar uchun birinchi navbatda investitsiya kerak. Shuning uchun bizning davlatimiz ham Isroil kabi davlatlarning iqtisodiy tajribasini qo'llashi muhim hisoblanadi. Chunki bugungi kunda davlatimiz fond bozori faoliyatini zamon talablariga to'la mos deb bo'lmaydi. Faqat kredit evaziga yangi muvaffaqiyatli loyihalarni kashf qilib bo'lmaydi.

Zamonaviy loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy turlari:

1.Fond bozori

2.Investitsion banklar

3.Heyj fondlar

4.Angel investorlar

4.Venchur fondlar

Tasavvur qiling tijorat banklari investor vazifasini bajaradi. U o'z resurslari bevosita real aktivlarni tashkil etish va moliyaviy aktivlarni xarid qilishga yo'naltiradi. Shu orqali tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subektlarining pul kredit shaklida yuzaga keluvchi investitsion talablarini amalga oshishini rag'batlantiradi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun banklar singari boshqa aksiyadorlik jamiyatlarida ham korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish kerak. Buning uchun biz rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganishimiz kerak. O'zbekistonda korporativ boshqaruv yo'lga qo'yilgan birinchi tashkilot tijorat banklari hisoblanadi. Lekin biz bugungi kunda boshqa faoliyatlarni ham rivojlantirishimiz kerak. Korporativ boshqaruv rivojlangan jamiyatlarda heyj fondlar, investorlar yoki investitsion banklarning faoliyati juda rivojlangan va bu iqtisodiyotning tez o'sishiga olib keladi. Rivojlanayotgan kompaniyalar uchun birinchi navbatda investitsiya kerak. Shuning uchun bizning davlatimiz ham Isroil kabi davlatlarning iqtisodiy tajribasini qo'llashi muhim hisoblanadi. Yangi startap loyihalar rivojlanishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlari erkin va shaffof faoliyat yuritishini taminlaydigan korporativ tizim kerak.

Bu investitsion banklar iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan va bu kompaniyalarda korporativ boshqaruv juda zo'r yo'lga qo'yilgan. Bu banklarning faoliyati kredit tizimiga emas balki investitsiya orqali moliyalashtirishga qaratilgan. Bizning davlatimizda ham shunday investitsion kompaniyalar bo'lishi kerak. Bunday kompaniyalarning venchur fondlari ham mavjud. Fondga butun dunyodan venchur investorlarning pullari jalb qilinadi hamda bu pullar investitsion bank orqali turli xil loyihalarni shuningdek startap loyihalarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Bu orqali yangi loyihalar mablag'ga ega bo'ladi va investorlar esa shu loyihalar orqali butun umr passiv daromadga ega bo'ladi.

Jahondagi mashhur investitsion banklar:

1-jadval

INVESTITSION BANK	DAVLAT
JPMorgan Chase	Unated States
Goldman Sachs	Unated States
Morgan Stanley	Unated States
Citigroup	Unated States
UBS	Switzerland
Credit Suisse	Switzerland
Deutsche Bank	Deutschland
HSBC	United Kingdom
RBC Capital Markets	Canada
Mitsubishi UFJ Financial Group	Japan

Manba: wikipedia.org

Bu ro'yhatda keltirilgan banklar hammasi keng investitsion faoliyat bilan shug'ullanadi. Bular loyihalarni fond bozorlari orqli moliyalashtiriladi. Agar bu banklar moliyalashtirgan har 10-20 loyihalardan bittasi muvaffaqiyatli bo'lsa ham bankning barcha xarajatlarini qoplaydi va juda katta foydaga chiqadi va eng asosiysi bank hissador bo'lganligi uchun investitsiya kiritgan loyihalari orqali har doim foyda oladi.

Kapital bozorini rivojlantirishda bir nechta yo'nalishlar bor:

1.Kompaniyalarda davlatning ulushini kamaytirish;

2.Obligatsiya turlarini ko'paytirish;

3.Islom moliyasini rivojlantirish;

4.Davlatning ulushi bor kompaniyalarni IPO orqali xususiylashtirish;

5.Kompaniyalarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish;

6.Fond bozoriga mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish;

7.Aholining moliyaviy bilimini rivojlantirish;

8.Sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish;

9.Emitentlar sonini ko'paytirish;

10.Investitsion fondlarni tashkil qilish;

So'nggi davr mobaynida qimmatli qog'ozlar bozorini isloh qilish, xususan ushbu sohadagi qonunchilik tizimini takomillashtirish, investorlar huquqlarining himoyasini kuchaytirish, kapital bozorini samarali tartibga solish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik o'rnatish yo'lida ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda kapital bozorini yanada rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va fond bozori likvidligini oshirishni rag'batlantirish bilan bog'liq o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar va kamchiliklar mavjud. Bu kamchiliklarning ba'zilari quyida keltirilgan:

-kapital bozorini rivojlantirish sohasida davlatning strategik rejalashtirish tizimi mavjud emas;

-erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan ulushi past (0,3 foiz);

-fond bozorida amalga oshirilayotgan bitimlarning yuqori qismi (birjadagi hajmlarning 70 foizidan ortig'i) davlat ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda;

-qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligi past, davlat qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorini rivojlantirish zaruriyati mavjud, amaliyotga joriy etilgan moliyaviy mahsulotlar turlari yetarli emas, davlat aksiya paketlari "bitta aksiya bitta lot" tamoyili asosida sotilmaydi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog'ozlar bozorida mablag' jalb qilishga bo'lgan qiziqishi past;

-kapital bozoriga uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega yirik institutsional investorlarni jalb qilish bo'yicha ishlar sust olib borilmoqda;

-bozor infratuzilmasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan, shuningdek, ushbu sohada mahalliy tizimlarning imkoniyatlaridan samarasiz foydalanilmoqda;

-mintaqaviy darajada kapital bozori infratuzilmasi mutlaqo rivojlanmagan;

-kapital bozori sohasida bozor kapitallashuvini oshirish choralarini faol ravishda ilgari surish va amalga oshirishga imkon beradigan yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi;

-sohani nomutanosib tartibga solishni nazarda tutuvchi hamda zamonaviy bozor talablariga va xalqaro standartlarga javob bermaydigan huquqiy hujjatlar ko'p;

-korporativ munosabatlar zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilmagan.

Bularni bartaraf qilish uchun hali ko'p amaliy ishalar qilinishi kerak va rivojlangan davlar kapital bozorining rivojlanish yo'lini o'rganish kerak. Kapital bozori bu avvalo investitsiya degani chunki kapital bozorida ishtirokchilar bo'ladi. Bular kompaniyalar va investorlar hisoblanadi va shu

holatda talab va taklif shakllanadi. Kapital bozorisiz investitsiya haqida o'ylamasa ham bo'ladi. Investitsiyaning kuchi haqidagi fikrimni quyidagi kompaniyani misol keltirib davom ettiraman.

Yaponiyada **SOFTBANK** deb nomlanadigan juda katta investitsion kompaniya mavjud va o'zining venchur fondiga ega. Uning egasi yaponiyalik investor Masayoshi Son hisoblanadi. U fondga biznesmenlarda katta miqdorda mablag'larni jalb qilgan holda startaplarga pul tikadi va yangi loyihalarni kash etadi. Softbank ma'lumotlariga ko'ra uning har yigirmatadan bitta loyihasi muvaffaqiyatli bo'ladi va qolgan muvaffaqiyatsiz 19 ta loyihaning zararini qoplab, foydaga chiqadi. Uning eng muvaffaqiyatli loyihalaridan biri Alibaba Group hisoblanadi. U vaqtida Alibaba Groupga 25mln$ miqdorida investitsiya kiritgan. Bugungi kunda bu kompaniyaning kapitalizatsiyasi 500mlrd $ dan ortiq hisoblanadi va bu kompaniya 2014-yilgacha o'tkazilgan tarixdagi eng yirik IPO hisobladi. Shunda bu kompaniya IPO orqali 25mlrd $ lik aksiyalar sotgan va IPO dan keyin kompaniya 250mlrd $ ga baholangan. Investitsiyaning kuchi shundaki bugungi kunda Alibaba Group Softbankning o'zidan ham yirik korporatsiya hisoblanadi va bu orqali Masayoshi Son kiritgan investitsiyasi darajasida doimiy foyda olib kelmoqda.

Korporativ boshqaruvning ham Yapon modelida korporatsiyalarning yirik ulushiga Investitsion banklar egalik qiladi. Ular kompaniyalarni kredit orqali emas balki investitsiya orqali moliyalashtiradi va har doim korporatsiyalarning o'ziga tegishli ulushini doimiy o'zida saqlab keladi. Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiyoti eng kuchli 10 davlatlar qatoriga kiradi hamda investitsion loyihalar, robototexnika, suniy intellekt va startaplar mamlakati hisoblanadi. Buning barchasi investitsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilgani uchun va ilm fan loyihalariga asosan investitsiyalariga mablag'lar yo'naltirilganligi evaziga bo'lmoqda.

Largest venture capital in the world

1. Sequoia Capital

2. Andresson Horowitz

3. Accel Partners

4. Kleiner Perkins

5. Benchmark Capital

6. Index Ventures

7. Greylock Partners

8. Founders Fund

9. 500 Startups

10. New Enterprise Associates

WORDLY KNOWLEDGE

MDH davlatlarida ham bugungi kunda brokerlik kompaniyalari, investitsion banklar mavjud. Rossiyada Tinkoffbank, Gruziyada TBC bank, Qozog'istonda Freedom finance bor. Freedom financeda O'zbekiston va Xorijiy kompaniyalar aksiyalarini sotib olsa bo'ladi. Tinkoffbank asosan bugungi kunda cryptovalyutalar va ularni ishlab chiquvchi loyihalarga pul tikadi. Cryptoindustriya bugungi kunda eng tez o'sayotgan industriya hisoblanadi. TBC ham bir qancha IT loyihalarga investitsiya kirgizgan, shuningdek O'zbekistonda Payme loyihasining 5mln $ lik ulushini sotib olgan. Payme loyihasi ham bugungi kunda muvaffaqiyatli bo'lib kelayotgan loyiha hisoblanadi va investorlariga katta foyda olib kelmoqda. Bizning davlatda ham investitsion banklar tashkil qilinishi kerak hamda startaplar va yangi loyihalar investitsiyalar orqali moliyalashtirib borilishi zarur. Shunda iqtisodiyot tez rivojlanada va O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishi tezlashadi.

Kompaniyalarning xalqaro miqyosda rivojlanishini taminlaydigan asosiy omil mavjud. Bu kompaniyalarning xorijiy fond bozorlarida listingdan o'tishi hamda IPO o'tkazishi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy jihatdan ustun bo'lishi uchun bu bosqichlardan o'tishi kerak. Xorijiy fond bozorlarida listingdan o'tish va IPO o'tkazish oson jarayon emas. Buning uchun har bir davlatning o'zining listing talablari va to'lovi mavjud. London fond bozori yoki New York fond bozorlari ma'lum bir listing talablari, to'lovlar, adolatli va shaffof faoliyatni talab qiladi. Banklarimiz manashu talablarga javob bergan holda kelajakda xalqaro fond bozorlariga chiqishi mumkin. Fond bozorlari va IPO jarayonlari investitsiyalar jalb qilishning eng foydali usuli hisoblanadi. Manashu singari faoliyatni yo'lga qo'ya oladigan kompaniyalar kelajakda muvaffaqiyatli bo'ladi. Bizning kompaniyalarimiz ham shu bosqichlarni amalga oshirgan holda yangi loyihalarni va startaplarni moliyalashtirishi mumkin hamda iqtisodiyotga katta foyda keltiradi.

Xulosa va takliflar

Kapital bozori faoliyatini rivojlantirish uchun bir qancha omillar mavjud. Buning uchun alohida heyj fondlar va investitsion banklar tashkil qilinishi kerak va ular o'z fondlariga ega bo'lishi kerak. Tijorat banklari ham fond bozorlariga chiqishi kerak. Fond bozori rivojlanishi kerak va banklarning bunda ishtirokini kuchaytirish kerak. Banklar investitsion faoliyat bilan shug'ullanishi uchun ularning o'zi moliyaviy jihatdan kuchli va mustaqil bo'lishi kerak. Banklar mustaqil holda va zamon talablariga to'la javob beradigan holda faoliyatini tashkil qilishi kerak. Banklarning investitsion faoliyati kredit faoliyatidan ancha ustun bo'lishi kerak. Banklarning xalqaro miqyosda rivojlanishini taminlaydigan asosiy omil mavjud. Bu banklarning xorijiy fond bozorlariga chiqishi hamda IPO o'tkazishi hisoblanadi. Banklar moliyaviy jihatdan ustun bo'lishi uchun bu bosqichlardan o'tishi kerak. Xorijiy fond bozorlarida listingdan o'tish va IPO o'tkazish oson jarayon emas. Buning uchun har bir davlatning o'zining listing talablari va to'lovi mavjud. London fond bozori yoki New York fond bozorlari ma'lum bir listing talablari, to'lovlar, adolatli va shaffof faoliyatni talab qiladi. Banklarimiz manashu talablarga javob bergan holda kelajakda xalqaro fond bozorlariga chiqishi mumkin. Fond bozorlari va IPO jarayonlari investitsiyalar jalb qilishning eng foydali usuli hisoblanadi. Yuqorida Softbank va Alibaba Group kompaniyalari misolida investitsiya va IPO ning kuchi haqida aytildi. Manashu faoliyatni yo'lga qo'ya oladigan kompaniyalar kelajakda muvaffaqiyatli bo'ladi. Bizning banklarimiz ham shu bosqichlarni amalga oshirgan holda yangi loyihalarni va startaplarni moliyalashtirishi mumkin hamda iqtisodiyotga katta foyda keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. lex.uz

2. wikipedia.org

3. softbank.j

4. alibabagroup.com

5. Google

6. www.wsj.com

WORDLY
KNOWLEDGE